

## IMOM MOTURIDIYNING 'KITOB AT-TAVHID' ASARI ASOSIDA AQL VA E'TIQOD MUNOSABATINING FALSAFIY KONSEPTUAL TAHLILI

**Yaxshiboyev Muhammad Said Maxmudjonovich**

*Sharq falsafasi va madaniyati mutaxassisligi 1-kurs magistranti*

**Narimonov Qahramon**

*Ilmiy rahbar: Moturidiylik ta'limoti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada islom e'tiqodi ilmlarining yirik namoyandasi Imom Abu Mansur Moturidiy hazratlarining hayoti, ilmiy faoliyati va boy ma'naviy merosi yoritiladi. Unda Moturidiylik ta'limotining shakllanishi, aql va naql uyg'unligiga asoslangan uslubi hamda ahli sunna val jamoa e'tiqodini himoya qilishdagi muhim o'rni qisqa va lo'nda tarzda bayon etiladi. Shuningdek, bugungi globallashuv davrida sof islomiy e'tiqodni asrash va uni kelajak avlodga yetkazishda Moturidiy ta'limotining dolzarbligi asoslab beriladi.*

**Tayanch tushuncha va iboralar:** *Imom Abu Mansur Moturidiy, Moturidiylik ta'limoti, ahli sunna val jamoa, islom e'tiqodi, kalom ilmi, tafsir ilmi, aql va naql uyg'unligi, Hanafiy mazhabi, Kitobut-tavhid, Ta'vilotu ahlis-sunna, sof e'tiqod, hidoyat.*

### KIRISH

Alloh taolo olamni yaratganidan buyon qanchadan-qancha insonlar yashab o'tgan bo'lsalar, ana shu insonlarning barchasi hech bo'lmasa umrida bir marotaba bo'lsa ham bu dunyo va uning ajoyibotlari, qanday yaratilgani va uni kim bu holga keltirgani haqida tafakkur qiladi va so'zsizki bu mushohadalari ularni chuqur o'yga toldiribgina qolmay, hayollarini bant qilsa ajab emas. Bunday tafakkur qilish hissi va borliqni kim yaratgani borasidagi bunday mulohazalar har bir insonning tabiatida bor.

Alloh taolo olamni yaratib, uni o'zining borligiga dalolat qiluvchi belgi qilgan ekan, anashu belgi inson zotini doimo tafakkur qilishga chorlaydi va zehniga kelgan savollarning javobini o'z aqli chegarasida sarhisob qiladi. Bunday holat har bir zamon va har bir makonda har kim tushadigan holatdir. Bu bir sinov bo'lib, bu sinov insonni yo abadiy saodat, yoki baxtsizlikka olib keladi. Bunday holatda insonni haq ila to'g'ri yo'lga yo'llab qo'yish uchun ham Alloh taolo bandalari orasidan o'z payg'ambarlarini tanlab olgan. Qolaversa payg'ambarlaridan so'ng aqlida yetuk, nabiylar yo'lga ergashuvchi, o'zi tarafidan berilgan qobiliyat va maqbullik ila insonlarning savollariga aniqlik ila javob beradigan va ularni turli xil zalolat yo'llaridan hidoyat yo'li sari yetaklaydigan olimlarni ham chiqarib turadi.

Islom ummatida bunday olimlar bisyor bo'lishiga qaramay, ularning ichidan ham islom haqiqatlarini tog'ri tushunib yetgan, o'zining ilmda peshvoligi, xalqni qiynayotgan savollarga tezda puxtalik bilan yechim berishi ila ajralib turadigan va o'z ilmiy me'rosini tizimli yo'l va mazhab ko'rinishida shakllantirgan olimlar sanoqlidir. Ana shunday

sanoqli va o'z xizmatlari ila islom e'tiqodi ilmlari yo'lida vazn e'tiboridan ulkan tosh bosadigan olim bu Abu Mansur Moturidiy hazratlari edilar.

U zot o'zlari yashagan davrda ko'pgina buzuq e'tiqodga ketib qolgan firqalarning botil e'tiqodlaridan islom ummatini saqlab qolgan va ularga ahli sunna val jamoa e'tiqodini ta'lim berganlar va hayotlik chog'laridayoq "Hidoyat imomi" nomiga sazovor bo'lganlar. O'zlarining boy ilmiy me'roslari ila ahli sunna val jamoa e'tiqodini bayon qiluvchi "Moturidiylik ta'limoti" ga asos solganlar. Bu ta'limot haq bilan botilni ajratib beruvchi yorqin bir dastur bo'lganligi bois ham islom ummati uchun har bir zamon va har bir makonda ehtiyoj seziladigan, o'qib-o'rganish zarur bo'lgan ta'limot sirasiga kiradi. Qolaversa bugungi 21-asrga kelib, dunyo rivojlanib, o'zaro muloqot aralashinuvi cho'qqiga chiqqan, dunyo bir hovli misol bo'lib qolgan davrda o'zimizning ahli sunna val jamoa e'tiqodini sof holda saqlab qolish va uni kelajak avlodga yetkazish vazifasi juda ham dolzarb bo'lib turibdi. Shu sababli Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekistonda 2025-yilda Imom Abu Mansur Moturidiy tavalludining 1155-yilligini keng nishonlash to'g'risidagi qarorni qabul qildilar. Bundan asosiy maqsad Imom Moturidiyning "ibratli hayot yo'li va boy ilmiy-ma'naviy merosini har tomonlama chuqur o'rganish va sof islomiy e'tiqodimizni omma musulmonlarga yetkazish va kelajak avlodni pokiza e'tiqod asosida tarbiyalashga muhim e'tibor qaratishdir.

Mana shu vazifaga kichik bir hissa qo'shish maqsadida Moturidiylik ta'limoti asoschisi hayoti va ijodiga va ta'limotlarining ilmiy uslublariga bir nazar tashlashga harakat qilamiz.

Abu Mansur Maqsudiyning to'liq ismlari Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud Moturidiy Samarqandiydir. U zot Samarqandning Moturid qishlog'ida tavallud topganlar. Kuniyalari Abu Mansurdir. Ba'zi tarixchilar: " Abu Mansur Moturidiyning nasabi mashhur sahobiy Abu Ayyub Ansoriy roziyallohu anhuga borib taqaladi" - deyishadi. U zoting tug'ilgan yillari aniq emas bo'lsada, Ustozlari Muhammad ibn Muqotil Roziy hijriy 248 sanada vafot etganlaridan kelib chiqib, Moturidiy hazratlari 248 sanadan avval tug'ilganlar deyishadi. Tarixchilar u zotni hijriy 333 sanada vafot etganlariga ittifoq qilishgan. U zot o'zlarining ona shaharlari Samarqandga dafn qilinganlar. Qabrlari ustiga 1940-yilda qabr toshi o'rnatilgan bo'lsa, 2000 - yilga kelib ulkan maqbara bino qilingan.

U zot Abbosiylar xalifaligi davrida yashab ijod etganlar, xususan Samarqand Somoniylar tasarrufida bo'lgan dunyoning ilmga kon mashhur shaharlaridan bir bo'lib, ko'plab ulamolar yetishib chiqqan. Abu Mansur Moturidiy hazratlari shu ko'xna shaharda zabardast ulamolarda tahsil olib, bu shaharning tabiiy, ijtimoiy, ilmiy hususiyatlaridan bahramand bo'lganlar va zabardast olim bo'lib yetishganlar.

U zot Abu Nasr Iyoziy, Abu Bakr Ahmad Jurjoni, Muhammad ibn Muqotil Roziy, Nusayr ibn Yahyo Balxiy kabi ilmda yetuk, parhezkor olimlardan ilm o'rgangan bo'lsalar, Imom Ishoq ibn Muhammad ibn Ismoil Samarqandiy, Imom Abdulkarim ibn Muso ibn Iyso Bazdaviy, Imom Abu Abdurrahmon ibni Abu Lays Buxoriy kabi olimlarga ustozlik qilganlar.

Imom Moturidiy rohmatallohi alayh Tafsir, E'tiqod yo'nalishlarida keng ko'lamli ijod qilganlar, ayniqsa Qur'oni Karimni tafsir qilishdagi uslublari o'ziga xos hisoblanadi. U zot ta'lif qilgan tafsirlari "Ta'viylotu ahlis-sunna", "Ta'viylotul-Quron", "Ta'viylotu Abu Mansur al-Maturidiyyi fit-tafsir" nomlari ostida Nashr qilingan. Kitobning asl nomi "Taviylotu ahlis-sunna" (Ahli Sunna tavillari) bo'lib, juda katta ma'noni ifoda etadi. U zot tafsir qilishda ham naql ham aql bilan tafsir qilish yo'lini tanlaganlar va o'rta yo'lni tutganlar.

U zotning tafsir qilishda fikr mustaqilligi- biror yo'nalishga yopishib olmaslik, shimoliy nazar-atroflicha fikr yuritish, mazmunga e'tibor- lafzdan ko'ra mazmunga chuqurroq nazr tashlash hususiyatlariga alohida e'tibor qaratganlar. Qolaversa Qur'onni Qur'on bilan, sunnati bilan va sahoba tobeinlardan kelgan asarlar bilan tafsir qilish yo'lini ushlaganlar. Aql bilan tafsir qilishdagi yo'llari oyatlarni ta'vil qilishda bir necha ehtimollarini zikr qilishlarida, falsafiy va aqidaviy masalalarga bo'lgan e'tiborlarida, aqlni ishlatishga chorlovchi oyatlarga bo'lgan ehtimomlarida ko'rinadi. Imom Moturidiy o'z tafsirida fihiy masalalarni Abu Hanifa rohmatallohi alayhga tobe bo'lib Hanafiy mazhabi asosida keltirganlar. Hoji Halifa "Kashfuz-zunun" asarida Imom Moturidiyning tafsir kitobi borasida: " U - hech bir kitob teng kela olmaydigan kitobdir" deb e'tirof etganlar.

Imom Moturidiy rohmatallohi alayhning Kalom ilmiga oid ko'pgina asarlari bo'lib, ular quyidagilar:

1. "Kitobut-tavhid"
2. "Kitobul Maqolot"
3. "Kitabu bayani vahmil mo'tazila"
4. "Kitabu raddi alal-Usulil xomsa li Abu Muhammad Boxiliy"
5. "Kitabu raddi avoili adilla lil Ka'biy"
6. "Roddu va'iydil fussoq lil Ka'biy"
7. "Roddu tahziybil jadal lil Ka'biy"

Bularning ichida "Kitobut-tavhid" asari juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu asarda muallif mutakallimlar uslubi ila Ahli Sunna val jamoa e'tiqodini bayon qilganlar.

Bu asarda ko'plab muammoli masalalarga aqliy va naqliy dalillar orqali ilmiy yechim berganlar.

Masalan, Yaratuvchining qadim zot ekanini quydagi kabi aqliy dalil keltirish uslubi ila bayon qilib berganlar.

Olamning paydo qiluvchisi qadim (ibtidosiz) bo'lishi lozim.

Chunki u qadim bo'lmasa, muxdas bo'lardi va har bir muhdasga muhdis (paydo qiluvchi) lozim bo'lganiga ko'ra, uning ham muhdisi bo'lishi zarur bo'lardi.

Bu tasalsul<sup>29</sup>ga olib kelgani uchun muhol sanaladi (ya'ni, har bir yaratuvchi yana bir yaratuvchiga muhtoj bo'lishi cheksiz davom etishi natijasida hech narsa yaratilmay koladi).

---

<sup>29</sup> Bir narsaning mavjudligi o'zidan avvalgi narsaning mavjud bo'lishini taqazo etishi.

Daxriylarning nazdida, olam "hayulo" deb nom-lanadigan qadim asldan paydo bo'lgan hisoblanadi.

Chunki ular biror aslsiz mavjud qilishni muhol sa-naydi. Ular "hech kim yo'qdan bor kila olmaydi" deb e'tiqod qiladi.

Daxriylar olamning Yaratuvchisini inkor etadi-gan toifadir. Ular: "Olamning asli azaldan mavjud.

Olam o'sha aslda xar xil o'zgarishlar ro'y berishi na-tijasida paydo bo'lgan", deydi.

Imom Moturidiy ular aytayotgan hayuvloning aza-liy emasligini quyidagi akliy dalil bilan isbot-lagan: "Ular aytayotgan hayuvloda ham, hozirgi olam-da ham hodislik alomatleri bor.

Chunki ularning aytishicha, hayuvlo har xil o'zgarishlar ta'sirida olamga aylangan.

Demak, u olamga aylanishi nati-jasida o'zi yo'q bo'lgan.

Yo'q bo'lish esa hodisga xos sifatdir.

Olam avval bo'lmay, so'ng hayuvlodan paydo bo'lgan bo'lsa, yo'qlikni boshdan kechirgan olamning ham hodis ekani sobit bo'ladi.

Chunki qadim narsa yo'klikni boshdan kechirmagan va hech qachon yo'q bo'l-maydigan bo'lishi lozim.

Nimaning qadimligi sobit bo'lsa, uning yo'q bo'lishi muhol sanaladi".

Qolaversa, Moturidiylik ta'limotining muhim jihatlaridan biri shundaki, u diniy masalalarda haddan oshish, mutaassiblik va keskin qarashlarga qarshi turadi. Bu ta'limot insonni fikrlashga, dalil bilan ish tutishga undaydi.

Shuning uchun ham bugungi kunda diniy ekstremizm va radikal g'oyalarga qarshi kurashishda Moturidiy ta'limoti muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, Imom Moturidiy insonning erki va mas'uliyati masalasiga alohida e'tibor qaratgan.

Uning ta'limotiga ko'ra, inson o'z amallarini ongli ravishda bajaradi va ular uchun javobgardir. Bu qarash hozirgi zamon axloqiy va ijtimoiy muammolarini tushunishda ham katta ahamiyatga ega.

Bugungi kunda Imom Moturidiy merosini o'rganish nafaqat diniy, balki ma'naviy va madaniy jihatdan ham muhimdir.

Chunki bu ta'limot asrlar davomida Markaziy Osiyo musulmonlarining e'tiqodiy asosini tashkil etib kelgan.

Uni chuqur o'rganish yosh avlodda sog'lom dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, Imom Moturidiy ta'limoti hozirgi zamon uchun ham dolzarb bo'lib, u ilmiy asoslangan, mo'tadil va insonni fikrlashga undovchi e'tiqodiy maktabdir.

Uni o'rganish jamiyatda barqarorlik, bag'rikenglik va to'g'ri diniy tushunchalarni qaror toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda ushbu ta'limotni batafsil o'rganib, tahqiq qilish orqali, undagi haqiqat va yechimlarni musulmon ummatiga yetkazish shu soha mutaxassislari uchun muhim vazifa bo'lib turibti

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Hidoyat imomi. – T.: Hilol-Nashr, 2024. – 128 b.
2. Obid Hursandov, Moturidiylik haqiqati. – T.: Hilol-Nashr, 2024. – 80 b.
3. Sobirov, J. Imom Moturidiy ta'limotining aqidaviy ahamiyati // Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi axborotnomasi. – Toshkent, 2021.
4. Maturidijournal.org
5. Webofjournals.com